

ADABIY TA'LIMDA DIFFERENSIAL YONDASHUV

Duschanova Nilufar Sabirbayevna

UrDU o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqola adabiyot darslarining samardorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi individual va differensial yondashuvning metodologik asoslarini yoritish masalalariga bag'ishlangan. Maqolada ikki xil yondashuv asosida adabiyot darslarini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan.

Tayanch so'z va iboralar: yetakchi mafkura, ma'naviy olam, individual qobiliyatlar, ta'lim sharoitlari, gomogen guruh, differensiasiyalash prinsipi, tabaqalashtirilgan ta'lim texnologiyasi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida sinfdagi barcha o'quvchini mutolaa jarayoniga jalb qilish uchun adabiyot o'qitishni qanday tashkil etish masalasi o'qituvchi oldida turgan muhim mammlardan biridir. Muammoning yechimini differensial va individual yondashuv asosida tashkil etilgan adabiy ta'limdan izlamoq maqsadga muvofiq. Differensial ta'limning nazariy asoslari G.K.Selevko tahriri ostida yaratilgan "Ensiklopediya obrazovatelnix texnologiy" o'quv-uslubiy qo'llanmada atroflicha yoritib berilgan. G.K.Selevko bergan ta'rifga ko'ra o'qitishda differensiasiya (o'qitishga differensial yondashuv) – bu:

- 1) maktab, sinf, guruhlar kontingentining xususiyatlarini hisobga olgan holda turli ta'lim sharoitlarini yaratish;
- 2) gomogen guruhlarda ta'lim berishni ta'minlovchi metodik, psixologo-pedagogik, tashkiliy tadbirlar majmuasini yaratish. [2]

Ta'limni differensiasiyalash prinsipi – pedagogik jarayonni tabaqalashtirish holati ekanligi bilan izohlanadi. Individual ta'lim differensiasiya (tabaqalashtirish) ning asosiy turlaridan biridir. Tabaqalashtirilgan ta'lim texnologiyasi ma'lum o'quv jarayonini qamrab oluvchi differensial ta'lim tashkiliy masalalari yechimi, metodi va vositalarining uyg'unligi bilan tavsiflanadi. Differensial yondashuvni amalga oshirish bir tipdagi gomogen o'quvchilar guruhlarini shakllantirishni nazarda tutadi.



O'zlashtirishi yuqori o'quvchilar uchun ularning intellektual ehtiyojlari darajasiga mos topshiriqlar ishlab chiqish lozim. Bunday o'quvchilar darsga badiiy asar mazmunini yaxshi o'zlashtirgan holda kelishadi. O'qilgan asar yuzasidan o'tkaziladigan an'anaviy savol-javoblar, davlat ta'lim standartlaridan kelib chiqqan holda egallangan bilimlar aniqlangach, o'qituvchining oldida o'quvchilarning asarni yanada chuqurroq anglashlariga yordam berish vazifasi turadi. Bu ishni o'quvchilarning asarni o'qishga qiziqishlari yuqoriligiga ko'ra juftliklarda yoki guruhlarda tashkil etish mumkin. O'quv jarayonida tashkil etilgan bu davrada o'qituvchining faoliyati tayyor bilimlar tashuvchisidan o'quvchilarning o'zlashtirish faoliyatini tashkil etuvchiga aylanadi.

Adabiyot mashg'ulotlarida samarali metodlardan izlanishli hamda loyihalash metodlaridan foydalanish alohida ahamiyatga ega. Adabiyot o'qitish metodikasi darsliklarida o'qituvchilarga kollektiv va individual loyihalar mavzulari tavsiya etilgan. Masalan, adabiyotdan puxta ma'lumotga ega guruhlarda ishni tashkil etishda Ernest Seton-Tompsonning "Yovvoyi yo'rg'a" [3] hamda Tog'ay Murodning "Ot kishnagan oqshom" asarlarining qiyosiy tahlilini amalga oshirish mumkin.

Guruhning har bir a'zosi ma'lum muallif asarini o'qiydi (bir guruh a'zolari "Yovvoyi yo'rg'a" asarini o'qisa, boshqa guruh "Ot kishnagan oqshom" asarini mutolaa qiladi), so'ng ajratib ko'rsatilgan asar fragmentidagi so'z va iboralar, tasvirning o'ziga xos xususiyatlarini bayon etadi. Tahlil davomida o'quvchilar asarlar tilidagi o'xshash va farqli tomonlarni aniqlab, xulosa chiqaradilar. O'quvchilar asarlar tilining o'xshash jihatlari ingliz tilidan tarjima Tog'ay Murod tomonidan amalga oshirilganligi bilan izohlanishini qiyosiy tahlil jarayonida anglay boshlaydilar. Dars loyihasida qo'shimcha manba sifatida Tog'ay Murodning o'z asarini yozishida ham, Ernest Seton-Tompson asarini tarjima qilishida ham o'z qobiliyatigagina suyanib ish ko'rmasdan, izlangani, jahon adabiyotida ot obrazi tasvirini boshqa yozuvchilar tajribalaridan o'qib o'rganganligi haqidagi ma'lumotning berilishi o'quvchilar faolligini oshirishda muhim omil vazifasini o'taydi.

Differensial adabiy ta'lim aprobatsiyasida o'qituvchilar differensial yondashuvni darsning qaysi bosqichida amalga oshirish bilan bog'liq muammoga duch kelishadi [5]. Muammoning yechimi mavzuning murakkabligi va dars tipiga bog'liq holda hal etiladi. Differensial yondashuv aslida darsning istalgan bosqichida amalga



oshirilishi mumkin. Dastlab bunday yondashuv yil yakunidagi tabaqalashtirilgan uyga vazifa berishdan boshlanadi. Yozda o'qishga topshirilgan asarlarni o'qimaganlar uchun asar bilan tanishish, asar syujeti va g'oyasi bilan tanish o'quvchilarni esa ijodiy topshiriqlar ham, qo'shimcha adabiyotlar: adabiyotshunoslik lug'atlari, tanqidiy maqolalar, tarixiy ma'lumotnomalar bilan ishlash ham qiziqtiradi. O'qituvchi dastlab bunday topshiriqlarni tanlashga yo'naltirilishi, so'ng o'quvchilarning o'zlari tanlashi mumkin.

Differensiasiyalashgan topshiriqlardan yangi mavzuni o'zlashtirishda ham foydalanish mumkin. Masalan, yangi mavzu yuzasidan o'quvchilarga uyda insho yozish topshiriladi. O'quvchilar diqqatini ortiqcha vazifalar bilan bo'lmaslik maqsadida yangi mavzu yuzasidan beriladigan qo'shimcha topshiriqlarni xohish bildirganlarga berish talab etiladi.

Nutq o'stirishga qaratilgan faoliyat ham differensial yondashuv asosida tashkil etilish mumkin. Bunda insho yozish uchun bir necha xil mavzularni tavsiya etishni ko'zda tutish maqsadga muvofiq [6]. Adabiyotdan yakuniy mashg'ulotlarning xususiyatlariga yaqinligiga ko'ra fanni past o'zlashtiruvchilar uchun mulohaza yuritishga qaratilgan insholar yozish topshiriladi. Muammo yuzasidan fikr yurita olish ko'nikmalariga ega o'quvchilarga taqriz yozish yoki ilgari o'rganilgan asarlar bilan qiyosiy tahlilni amalga oshirish topshiriladi.

Adabiyot faniga qiziquvchilar, kelgusida filologiya yo'nalishida tahsil olishni istaydiganlar bilan alohida ishlashni tashkil etish ham muhim ahamiyatga ega. Bunday iqtidor egalari ilmiy-tadqiqotga yo'naltirilgan ko'rik-tanlovlarda, fan olimpiadalarida ishtirok etadilar. Bunday o'quvchilar alohida e'tiborga dars jarayonidagina emas, balki darsdan tashqari mashg'ulotlarda individual konsultatsiya berish ko'rinishida ehtiyoj sezadilar. O'qituvchi adabiyotdan fan olimpiadasi zamonaviy talablariga o'quvchini individual maslahatlari bilan tayyorlashi talab etiladi (bunda ustuvor topshiriqlardan biri – asarning kompleks tahlilini amalga oshirish) [7].

Xulosa qilganda, o'z vatani kelajagiga befarq bo'lmagan adabiyot muallimi sinfidagi har bir o'quvchining o'zlashtirish samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi darslarni individual hamda differensial yondashuv asosida tashkil etishga harakat qiladi.



Adabiyotlar:

1. O'tsuyushchiye v uchenii shkolniki: problemy psixicheskogo razvitiya / 3.I. Kalmikova, I.Yu. Kulagina red.ost. - Moskva: 1986.
2. Selevko G.K. Ensiklopediya obrazovatelnix texnologiy. V 2-x t. T. 1. – M.: Narodnoye obrazovaniye.
3. Adabiyot. 7-sinf uchun darslik-majmua./Q. Yo'ldoshev, B.Qosimov, V.Qodirov, J.Yo'ldoshbekov/. – T.: “Sharq” nashriyoti,2017.-340-b.
4. Adabiyot. 10-sinf uchun darslik/ B.To 'xliyev, B.Karimov, K.Usmonova/.- T.: “O ‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2017.- 156-b.
5. S.Dolimov, H.Ubaydullayev, Q.Ahmedov. Adabiyot o'qitish metodikasi.-T.: “O'qituvchi”,1986.
6. Shermatova, U. S. (2020). Cho'lpon ijodida istiqloq g'oyalari. Academic Research in Educational Sciences, 1 (3).

